Toshkent davlat tibbiyot universitetiga 2026-yil yanvar-sentabr oylarida kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tahliliy
MA’LUMOT

2026-yilning yanvar-sentabr oylari davomida jismoniy va yuridik shaxslardan jami 266 ta murojaat kelib tushgan. Jumladan virtual qabulxona orqali kelgan murojaatlar soni 66 tani, og‘zaki murojaatlar 85 tani, universitet veb-sayti orqali 38 tani, elektron pochta orqali 35 tani yozma pochta 42 tani tashkil etadi.

Virtual qabulxona orqali kelib tushgan 66 ta murojaatdan 51 tasi ijobiy hal qilindi, 6 tasi tushuntirish berilgan, 2 tasi tegishliligi bo‘yicha boshqa tashkilotga yuborilgan, 7 tasi o‘rganish jarayonida.Virtual qabulxona orqali kelgan murojaatlarning asosiy mazmuni: o‘qishga kirish masalasi, o‘qishini ko‘chirish va tiklash, akademik mobilnik doirasida o‘qishni davom ettirish masalalari, kursdan kursga qolgan talabalarning ota-onalari tomonidan imtihonlarni qayta topshirishga yana bir imkon yaratilishi to‘g‘risida, kontrakt to‘lov masalalari, talabalar turar joylari bo‘yicha va boshqa masalalar to‘g‘risida.

Universitetga 2026-yilning yanvar-sentabr oylari davomida elektron pochta orqali, universitet veb-sayti hamda yozma va og‘zaki murojaatlar soni 200 tani tashkil etdi, shundan 189 ta murojaat qanoatlantirildi, 11 ta murojaatga tushuntirish berildi. Ushbu murojaatlarning asosiy mazmuni: o‘qishini ko‘chirish, ishga kirish, malakaviy imtihon topshirish, universitet tasarrufidagi klinikalardan tibbiy ko‘rikdan o‘tish davolanish masalasi, xizmat safariga chiqish va akademik mobilnik doirasida o‘qishni davom ettirish masalalari, dissertasiya ishini dastlabki muhokamadan o‘tkazish, to‘lov-kontrakt masalalari, talabalar turar joyi va boshqa masalalar.

Universitetga 2026-yilning yanvar-sentabr oylari davomida kelib tushgan (virtual qabulxona, elektron pochta, sayyor qabul, yozma, veb-sayt, og‘zaki va telefon orqali kelib tushgan) jami 266 ta murojaatning 240 tasi qanoatlantirildi, 17 tasiga tushintirish berildi, 9 tasi o‘rganish jarayonida. Ushbu murojaatlarga belgilangan tartibda ma’lumot berildi.

Ushbu murojaatlarning viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- 54 ta Toshkent shaxar;
- 2 ta Navoiy viloyati;
- 15 ta Farg‘ona viloyati;
- 7 ta Andijon viloyati;
- 12 ta Sirdaryo viloyati;
- 14ta Samarqand viloyati
- 17 ta Toshkent viloyati;
- 15 ta Surxandaryo viloyati;
- 3 ta Buxoro viloyati;
- 86 ta Qashqadaryo viloyati;
- 16 ta Jizzax viloyati;
- 9 ta Qaraqalpog‘iston Respublikasi;
- 16 ta Boshqa davlatdan.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishni tashkil etish va muvofiqlashtirish guruhi tarkibi yangilanib, ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan xodimlardan iborat guruh rahbari va uning a’zolari:

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring boshqarmasi boshlig’i D.D.Achilov;

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor K.N.Xaitov;

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash nazorat va monitoring bo‘limi bosh mutaxassisi N.F.Ibragimova;

Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i X.Ravshanov;

Devonxona mudiri S.Muminova tomonidan bevosita ushbu faoliyat amalga oshirilib kelinmoqda.

Universitetning Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash nazorat va monitoring bo‘limi tomonidan har yili bir marta barcha tarkibiy bo‘linmalarda o‘rganishlar o‘tkazilishi jarayonida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash holati yuzasidan ham tekshirishlar o‘tkazilib turiladi. 2026 yil 1-2-choragida murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha 1 ta seminar mashg‘uloti o‘tkazilgan, eng ko‘p murojaatlar bo‘yicha 2 marta tahlil o‘tkazilib, ular muhokama qilinishi uchun qabul komissiyasi va universitet rektorat yig‘ilishiga yuborilgan.

Ushbu tahlillar kelgusida shu kabi murojaatlar sonini kamaytirish maqsadida universitet qabul komissiyasi va universitet Ilmiy kengashiga keng ko‘lamli muhokama qilish, ushbu masalada har bir murojaatchi bilan bo‘lgan muloqotda qayd etilgan qarorning mazmun-mohiyatini chuqur tushintirish ishlari olib borish uchun yuborilgan.

Qabul komissiyasi va Ilmiy kengashda ushbu masalalarga jiddiy qaralib, chuqur muhokamalar individual ravishda olib borilmoqda.

Murojaatlar bilan ishlash holati borasida jamoatchilik fikrini o‘rganish bo‘yicha 1 marta tadbir o‘tkazilgan, natijalariga ko‘ra, ko‘pchilik professor-o‘qituvchilar, talabalar va xodimlar tomonidan murojaatlar bilan ishlash holati ijobiy baholangan.

Murojaatlar bilan ishlash yuzasidan Toshkent davlat tibbiyot universiteti Kasaba uyushmasi qo‘mitasi oldida 2026-yil kelgusi choragida 1 marta hisobot berilishi inobatga olingan. Mazkur hisobot va uning yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar universitetning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi haqida ma’lum qilinadi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning
murojaatlari bilan ishlash,
nazorat va monitoring boshqarma boshlig’i **D.D. Achilov**

Jismoniy va yuridik shaxslarning
murojaatlari bilan ishlash
nazorat va monitoring bo‘limi
bosh mutaxassisi **N.F.Ibragimova**